

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ЖАҲОН ТАРИХИ КАФЕДРАСИ

ЖАҲОН ТАРИХИНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

мавзусидаги Республика миқёсидаги илмий-амалий анжуман

МАТЕРИАЛАРИ

БУХОРО – 2021

Илмий – амалий анжуман Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги тасарруфидаги олий таълим ва илмий-тадқиқот муассасаларида 2021 йилдаги Республика миқёсида ўтказиладиган илмий ва илмий-техник анжуманлар режасига кўра Бухоро давлат университетида 2021 йилнинг 8 октябр куни “**Жаҳон тарихининг долзарб муаммолари**” мавзусида Республика миқёсида илмий-амалий анжумани белгиланган тадбирларни амалга ошириш мақсадида ўтказилди.

МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Ҳайитов Ш.А. – БухДУ профессори, тарих фанлари доктори

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

Бухоро давлат университети ректори,
иктисод фанлари доктори , профессор

О.Х.Ҳамидов

Тарих ва маданий мерос факультети декани в.в.б.

Ж.Р.Жўраев

Жаҳон тарихи кафедраси мудир, тарих
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент

О.Р.Рашидов

Жаҳон тарихи кафедраси доценти,
тарих фанлари номзоди

К.Ж.Рахмонов

Жаҳон тарихи кафедраси катта ўқитувчиси, (PhD)

М.З.Орзиев

Жаҳон тарихи кафедраси катта ўқитувчиси, (PhD)

Б.Н.Ризаев

Жаҳон тарихи кафедраси ўқитувчиси, (PhD)

Ж.Ш.Ҳайитов

Тўплаб нашрга тайёрловчилар:

К.Ж.Рахмонов - Жаҳон тарихи кафедраси доценти,
тарих фанлари номзоди

Ш.М.Мирзоев - Жаҳон тарихи кафедраси ўқитувчиси

Илмий-амалий анжуман материалларида чоп этилаётган мақола ва тезислардаги матн, манба ва адабиётлар учун муаллифларнинг ўзлари масъулдирлар

холида нашр қилишга ва Бухоро аҳолиси учун “Муаллими лисони русий” номида бир дарслик ёзишга ваъда беради³³⁸.

Амир Бухорога қайтишда Қора денгиздан кема орқали кечиб ўтаётганда, кучли шамол туради. Тифлис шаҳрига етиб келганда, Бухородаги мухтор вакилларига Қора денгиздан омон-эсон ўтгани учун мадраса талабалари бўлмиш, ёш фикхшуносларга 1 йиллик боқимонда пулларини аввалдан беришни тайинлаб телеграмма жўнатади³³⁹.

Бухоро амири Абдулаҳадхоннинг “кундалиги”ни ўқир эканмиз, XIX аср охирида Бухоро амирлиги, Россия империяси ва унга тобе Туркистон, Кавказ ва Қрим халқларининг таълим тизимига оид бир қанча маълумотларга эга бўламиз. Амир Абдулаҳадхоннинг Москва, Петербург, Тбилиси, Боку ва Ашхобод шаҳарларидаги ўзгаришларни кўриб, хулоса чиқариб, мамлакатда ислохотлар амалга оширганига гувоҳ бўламиз.

BUXORO TURKMANLARI BILAN BOG’LIQ JOY NOMLARI TAHLILI

To’rayev Anvar

Bux DU “Jahon tarixi” kafedراسи o’qituvchisi.

Buxoro vohasi uzoq asrlardan buyon ko’p millatli tarixiy-etnografik hudud sanalib, xilma-xil etnik tarkibga ega bu mintaqada o’zbeklar bilan birga, tojiklar, ruslar, turkmanlar, yahudiylar, eroniylar, arablar, qozoqlar va boshqa millat vakillari yashab kelmoqdalar. Tabiiyki, har bir millat vohada kechgan etnik jarayonlarda faol qatnashib, o’ziga xos lokal madaniyatni shakillantirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Shunday millatlardan biri turkmanlar jamiyatdagi etnosotsial va etnomadaniy munosabatlarning asosiy ishtirokchilari o’laroq, har bir jabhada o’zining etnik xususiyatlarini namayon qilgan.

³³⁸ Абдурашидов З. Аннотированная библиография Туркестанских материалов в газете «Таржуман» (1883-1917). Япония, 2011. – Б. 79.

³³⁹ Точный перевод дневника его светлости эмира Бухарского... - С. 64; Бухоро амири ҳазратларининг кундаликлари // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари, 1998, № 4. – Б. 150.

Xususan, Buxoro vohasida mavjud aksariyat joy nomlariga e'tibor qaratilsa, turkmanlar bilan bog'liq jihatlariga guvoh bo'lish mumkin. Olib borilgan kuzatishlarimiz orqali shunga amin bo'ldikki, Buxoro viloyatining ikkita: G'ijduvon va Vobkent tumanlaridagina turkmanlar istiqomat qilmaydi, qolgan Buxoro viloyatining to'qqizta tumanida turkmanlar yashab kelmoqdalar.

Ushbu maqolada Buxorodagi turkman urug'lari nomi bilan aytiladigan joy-nomlarini hududlar kesimida ko'rsatib, ularning ma'nosini yoritib o'tiladi. Buxorodagi turkmanlar bilan bog'liq etnotoponimni shartli ravishda ikkiga bo'lib o'rganish muhimdir.

Birinchidan, turkman etnonimi bilan yuritiladigan joy nomlari;

Ikkinchidan, Bevosita turkmanlar yashab kelgan, lekin turkman urug' nomi bilan atalmaydigan joylar;

Dastlab, turkmanlar bilan bog'liq etnonimlar tahlilini keltirsak. Buxoro viloyatining turli hududlarida turkman urug' nomi bilan aytilib kelinadigan joylar ko'p. Masalan: chandir, chovdur, xidireli, aleli, og'ar, bayot, sayot. Bundan tashqari turkmanchanning o'zida ifoda qilgan joy-nomlari ham saqlanib qolgan. Romitan tumanidagi Qoqishtuvon, Kogon tumanidagi Turkmano'g'li qishloqlarini aytib o'tishimiz joiz.

Turkman urug'lari ichida "chandir" nomi bilan atalib kelingan joynomlarini O'zbekistonning turli tarixiy-etnografik hududlarida, jumladan, Samarqand, Qashqadaryo, Buxoro, Xorazm, Surxondaryoda ko'p uchraydi. Shular orasida Buxoroning chandir urug'i nomi bilan bog'liq joy nomlari Peshku, Shofrikon, Romitan, Jondor, Qorako'l, Olot tumanlari misolida aytilsa, keng tarqalgan etnotoponimlardan biri hisoblash mumkin. Yuqorida sanalgan hududlarda "Chandir" deb nomlangan qishloqlarning shakllanishi sababi quyidagicha: XVI-XVII asrdan boshlab³⁴⁰ ko'chmanchi turkmanlar vohaga tabiiy, iqtisodiy, siyosiy omillar ta'sirida ko'chib kela boshlaganlar Chandir urug'i hududlar bo'ylab tarqalishiga oid turlicha qarashlar bo'lib, Romitan tumanidagi chandir aholisi bilan suhbatlarda aniqlandiki,

³⁴⁰ To'ra Halimov., Ta'lat Halimov. Asrga tatigulik saxovat. Buxoro. "Durdona", 2016 .-B.10.

chandirlar azaldan birlashib, uyushqoqlik asosida ish ko'rish, bo'ysunmasligi va urushqoqligi bilan ajralib turganligi sababli har doim hukumdorlarni o'ylantirib kelgan. Shu sababdan ham chandir urug' vakillarini bir hududga joylashtirishdan ko'ra, bo'lib tashlab, ta'sir doiralarini kamaytirishga e'tibor qaratishgan³⁴¹. Natijada bir-biridan uzoqda bir-necha chandir qishloqlari vujudga kelgan. Buxoro chandir turkmanlarining bugungi kunga qadar o'zaro yaqin madaniy aloqalaridan ham anglash mumkinki, ular bir urug'danligi yoki azaldan o'z urug'idagilarning quvonchi-qayg'usiga sherik bo'lishganligi, bitta yoqadan bosh shiqarib harakat qilishlari ularni hozirda ham aloqalarni o'rnatishga sabab bo'lyapti.

Chandir- turkman xalqi tarkibidagi qadimiy urug' nomi bo'lib, S. Qorayev chandir "kuchli, chayir" degan ma'noni bildirishini aytadi. Abu Xayyon chandir so'zini "duragay, qurama" deb izohlaydi³⁴². Boshqa mualliflar kitoblarida chandir- (chaka chandir) qattiq, mustahkam, ba'zi bir rivoyatlarda suv yoqasi, suv labi degan ma'nolarni anglatgan deb yuritiladi.³⁴³ Oltiboy Rahimov esa chandir- mard, tanti, bir so'zli, sotilmaydigan kishilar ma'nosida keltiradi³⁴⁴.

Turkman chandirlarning ma'nosi o'z o'rnida ularning xarakter xususiyatlarida, turmush hayotida, oilaviy munosabatlarida ham ko'rinib turadi. Masalan, xalq orasida chaqqon, harakatchan, epchil kishilarga nisbatan "chaka-chandir" termini ko'p qo'llaniladi. Bu esa o'z navbatida olimlarning chandir urug'iga bergan ta'rifiga mos kelishi bilan izohlash mumkin.

Turkmanlarning "chovdur" urug'i nomi bilan yuritiladigan joylarni Olot tumanida Ko'l chovdur, Chovdur qishloqlari nomida ham ko'rish mumkin. Ko'l chovdir toponimikada gidrooykonim hisoblanib, ya'ni suv bo'yidagi manzillarga nisbatan ishlatilgan. Qadimda bu yerda ko'l mavjud bo'lib, bu zaminga chovdur urug' kelib joylashgan va hudud shu nom bilan "Ko'ldagi chovdurlar" yoki "Chovdirlar ko'li"

³⁴¹ Dala yozuvlari. Romitan tumani Chandir qishlog'i. 2021 yil.

³⁴² Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosi. T.: "O'zbekiston", 1978.-B. 141.

³⁴³ To'ra Halimov. Joy nomlari ma'nosi. Buxoro. 2002.-B.23.

³⁴⁴ Rahimov Oltiboy. Avlod-ajdodlarimiz qissasi. T.: "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi", 2006.-B. 42.

ma'nosida keladi³⁴⁵. Aholining aksariyati turkman bo'lib, Turkmanistonning Chorjo'y, Kerki, Tajan daryosi atrofidan ko'chib kelganlar. Olot tumanidagi Chovdurlarning tili, so'zlashuv shevalari, urf-odatlarida Turkmanistondagi aholi vakillariga yaqinligi ko'rinib turadi. Buning sababi, Olot tumani janub tomonida Turkmaniston Respublikasining Farap tumani bilan chegaradoshligi, Buxoro viloyatining boshqa tumanlariga nisbatan yaqin masofada joylashganligi, ko'proq ikki hudud aholisi o'rtasida qavm-qarindoshchilik, qiz berib, qiz olish, to'y-marakalarda o'zaro qatnashish odatlari ko'p kuzatilgan.

Chovdur etnonimiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Chovdur o'rta asrlarda turkman urug'i, O'g'uzxonning yigirmanchi nabirasi bo'lib, Mahmud Qoshg'ariy "Turkiy so'zlar devoni" asarida "Chovdur" so'zini -"Juvoldorlar" ko'rinishida bergan. Juvaldor o'g'uz qabilasining nomi. Mahmud Qoshg'ariy shunday deb yozadi: "Bu qabilalarni bilishga odamlarning ehtiyojlari borligi uchun birma-bir izoh qildim. Bu tamg'alar ularning mollari va podalarning belgisidir. Mollari aralashib ketganda har bir qabila o'z molini shu tamg'alardan ayirib oladi". Juvaldorlar qabilasining tamg'asi ot taqasi ko'rinishida bo'lib, u mollar badaniga qizdirib bosilgan³⁴⁶. Abdulg'oziy Bahodirxon asarida "O'guzxonning nabiralarining otlarining ma'nosi, tamg'alari va qushlarining zikri" mavzusida so'z yuritganda chovdurning ma'nosini "Nomusli" deb atab, qushi "Bug'daynaq"³⁴⁷ bo'lganligini takidlaydi.

Olot tumanida "Xideyerli" nomi bilan yuritiladigan qishlog'i bor. Mahalliy aholi bu qishloq ma'nosini quyidagicha izohlaydilar: Xideyerli-asli "Xidr eli", "Xidir yurti", Xidir va Ali yashab o'tgan qishloq deb izohlaydilar³⁴⁸. Bu qishloq nomi aslida turkmanlarning Xidireli urug'i nomi bilan bog'liq. Chunki- eli qo'shimchali etnonimlar ko'proq turkman qabilalari tarkibida uchraydi. Masalan: Jondor tumanidagi Alieli qishlog'ini olaylik. Qishloq turkmanlarning ali eli urug'i nomi bilan bogliq³⁴⁹.

³⁴⁵ Yavmutov O.Sh. Olot tumani qishloqlarining toponimlari. Buxoro. "Iste'dod", 2012.-B. 23.

³⁴⁶ Mahmud Qoshg'ariy. Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'atit turk). 3 tomlik, 1-tom, T.: "Fan", 1960. -B. 90-91.

³⁴⁷ Abdulg'oziy Bahodirxon. Shajarayi tarokima. T. 1995. -B.13.

³⁴⁸ Dala yozuvlari. Olot tumani Xideyerli qishlog'i. 2020 yil.

³⁴⁹ Yavmutov O.Sh. Olot tumani qishloqlarining toponimlari. Buxoro. "Iste'dod", 2012.-B. 38.

Buxoroda turkman urug'lariga oid etnotoponimlar juda ko'p. Turkmanlarning urug' nomlari bilan aytiladigan joy-nomlarini yana davom ettirish mumkin. Kattami-kichikmi, har bir tuman joy nomlarining boshqa tuman toponimiyasidan farq qiladigan o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi. Bularni o'rganishda ilmiy adabiyotlardagi ma'lumotlar bilan birga dala tadqiqotlarida qo'lga kiritilgan materiallarga tayanib tahlil qilinsa yanada aniqlik oshardi. Hozirda ayrim joy nomlarini o'zgartirish orqali zamonaviy nomlar qo'yishga harakat kilinmoqda. Bu juda katta xatolik, chunki, joy nomlari tarixni, madaniyatni, etnik mansublikni bilishda muhim ahamiyatga ega.

BUXORO TARIXINI O'RGANISHDA ARXEOLOGIK TADQIQOTLARNI O'RNI

O'taeva Feruza

Buxoro Davlat Universiteti

Buxoro tarixi kafedrasi

katta o'qituvchisi

Tarix shundan dalolat beradiki, inson o'zining aql-zakovati bilan dastlabki mehnat qurollarini o'ylab topdi va mehnat qurollari yordamida ortiqcha mahsulotlar ishlab chiqdi. O'sha ortiqcha mahsulotlarni sotish uchun bozorlarni tashkil etdilar. Odamlar gavjum va ko'p bo'lib o'zlaridan ortib qolgan qo'shimcha mahsulotlarni sotadigan joylarda dastlabki shaharlar paydo bo'ldi.

Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2018 yilni "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili", 2019 yil "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili", 2020 yil "Ilm -ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilindi. Albatta, yillarning nomlanishi jarayonida tarixiy taraqqiyotda juda katta o'zgarishlar va yangilanishlar, innovatsion g'oyalar amalga oshirildi. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni

рихидан	145
Муродова Дилрабо. XX асрнинг 30-йилларида Бухоро давлат педагогика институти фаолияти.....	150
Назарова Саодат. Муҳиддин Қори Ёқубов - ўзбек сахна санъатини жаҳонга танитган санъаткор.....	155
Оstonов Жаҳонгир. XX асрнинг 20 йилларида Афғонистон ва Бухоро алоқалари.....	159
Охунжонова Шаходат. Тошкент савдогарларининг ҳорижий мамлакатларга савдо сафарларининг ютуқ ва муаммолари (1991-2020 йиллар).....	163
Очилов Фаррух. Европа антикшунослиги масаласи – жаҳон тарихининг долзарб муаммоси сифатида.....	169
Равшанов Шербек. Туркистонга Россия империяси аҳолиси миграциясининг ижтимоий тарихи.....	173
Ражабов Қаҳрамон. Жаҳон мамлакатларининг классификацияси.....	177
Ражабов Ойбек. Бухоролик ўрта аср исломшунос олимлар.....	185
Раҳматов Рамшод. Сибир хонлигининг Бухоро билан иқтисодий алоқалар тарихи.....	189
Раҳмонов Камол. Афғонистоннинг XX аср 20-йиллари даври тарихини ўрганишга доир айрим мулоҳазалар	192
Рашидов Ойбек. Ўзбекистонда миллий зиёлилар ва большевикларнинг мафкура майдонида кураши мавзусининг манбашунослиги таҳлили.....	197
Рашидов Ойбек. СССРда Сталин қатағонларининг бошланиши.....	203
Ризаев Бахтиёр. Усманийлар империясининг кўчириш сиёсатига доир мулоҳазалар (XVI-XX аср бошлари).....	207
Самадова Кимёнисо. Бухоро атрофидаги “Канпирак девори” тарихи хусусида.....	212
Саъдуллаева Вазира. “Бухоро амири хазратларининг кундалиги” асари асосида Россияда таълим масалалари.....	217
Тўраев Анвар. Бухоро туркманлари билан боғлиқ жой номлари	

таҳлили.....221

Ўтаева Феруза. Бухоро тарихини ўрганишда археологик тадқиқотларни ўрни.225

Ҳайдарова Ҳанифа. Носир Хисравнинг жаҳон фалсафасидаги ахлоқий ғоялар228

Ҳайитов Жаҳонгир. Жаҳондаги миграция жараёнларининг экин навларини тарқалишига таъсири.....232

Ҳайитов Шодмон. 1914 – 1918 йилларда Россия – Эрон, Россия – Афғонистон чегарасидаги аҳволга доир (архив ҳужжатлари асосида).....236

Ҳакимова Гулноза. Бухоро амирлиги таркибига кирувчи Жанубий Туркистондаги ўзбек бекликларининг сиёсий ҳаётига бир назар.....241

Халилова Зилола. XX асрда хорижий шарқ мамлакатларида таълим ислохотлари ва унинг Марказий Осиёга таъсири246

Ҳамроев Дилмурод. Ўзбекистонда иқтисодий ўзгаришлар жараёнининг расмий матбуотда ёритилиши253

Ҳасанов Камолиддин. Ўзбекистон ва Туркия абадий дўстлик сари.....256

Шарипов Умид. Дунёвий бошланғич таълимнинг вужудга келиши тарихига бир назар.260

Элова Дилноза. XIX аср охири – XX аср бошларида Туркистонга янги ҳарбий қурол – яроғларнинг кириб келиши тарихи.....263

Эргашев Ақобир. “Осор ул бокия” асарида халқ таквимлари.....268

Эрназаров Шермуҳаммад. “Цивилизация” тушунчаси хусусида айрим мулоҳазалар.....270

Юсупова Манзура. Сайёҳлар томонидан Бухоро воҳаси маросим таомларининг ўрганилиши.....274